

Davlat akkreditatsiyasi tizimida

Ekspertlar korpusi

yuzasidan ma'lumot



MUNDARIJA

I. Kirish	
II. Ekspertlar korpusini shakllantirishning normativ-huquqiy asoslari.....	5
III. Ekspertlarni saralash va reyestrga kiritish mexanizmlari.....	7
IV. Ekspertlar faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimi.....	8
V. Ekspertlar korpusining joriy holati tahlili.....	10
VI. Xorijiy ekspertlarni jalb etish va xalqaro integratsiya.....	14
VII. Mavjud muammolar va tizimni yanada rivojlantirish istiqbollari.....	16
VIII. Xulosa.....	18
1-ilova. Mahalliy ekspertlarning oliy ta'lim tashkilotlari kesimidagi ro'yxati.....	19
2-ilova. Dunyoning yetakchi universitetlardan jalb qilingan xorijiy ekspertlar ro'yxati....	25
3-ilova. Xalqaro akkreditatsiya va ta'lim sifatini ta'minlash tashkilotlarida ish tajribasiga ega xorijiy ekspertlar ro'yxati.....	27



KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sifatini ta'minlash masalasi global ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Xalqaro amaliyotda ta'lim sifatini tashqi ta'minlash tizimining eng muhim elementlaridan biri sifatida professional va mustaqil ekspertlar korpusi qaraladi. Aynan ekspertlar ta'lim tashkilotlari (dasturlari)ning sifatini xolis, shaffof va xalqaro standartlar asosida baholashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shu bois rivojlangan davlatlarda akkreditatsiya jarayonlariga yuqori malakali mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb etish, ularni saralash, tayyorlash, faoliyatini monitoring qilish hamda professional rivojlantirish bo'yicha institutsional mexanizmlar shakllantirilgan.





Mamlakatimizda ham ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, ta'lim xizmatlari sifati va ochiqligini oshirish hamda ta'lim sifatini tashqi baholashning mustaqil mexanizmlarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur islohotlarning muhim bosqichi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoniga¹ muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Milliy agentlik) tashkil etildi.

Mamlakatimizda ham ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, ta'lim xizmatlari sifati va ochiqligini oshirish hamda ta'lim sifatini tashqi baholashning mustaqil mexanizmlarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, ekspertlarni saralash, tayyorlash, sertifikatlash, faoliyatini monitoring qilish va baholash jarayonlari to'liq raqamlashtirilgan.

Bunda nomzodlarning quyidagi sifatlariga alohida e'tibor qaratildi

 <p>strategik va tahliliy fikrlash qobiliyati</p>	 <p>kasbiy kompetensiyasi</p>
 <p>xalqaro standartlarni bilish darajasi</p>	 <p>ta'lim sifatini ta'minlash sohasidagi tajribasi</p>

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-7513052>

Shuningdek, akkreditatsiya jarayonlariga nufuzli xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari hamda dunyoning yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari vakillarini keng jalb qilish orqali milliy akkreditatsiya tizimini xalqaro amaliyot bilan uyg'unlashtirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Bu esa davlat akkreditatsiyasi jarayonlarining xolisligi va ishonchliligini ta'minlash, milliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi nufuzini oshirish hamda ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy institutsional mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu hisobotda davlat akkreditatsiyasida ekspertlar korpusini shakllantirishning normativ-huquqiy asoslari, ekspertlarni saralash va baholash mexanizmlari, ekspertlar korpusining joriy holati, xorijiy ekspertlarni jalb etish amaliyoti hamda tizimni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari yuzasidan tahliliy ma'lumotlar keltiriladi.

EKSPERTLAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHNING

NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

Mamlakatda ta'lim sifatini tashqi baholash tizimini xalqaro standartlar asosida tashkil etish hamda davlat akkreditatsiyasi jarayonlarining mustaqilligi, shaffofligi va xolisligini ta'minlash maqsadida ekspertlar korpusini shakllantirishning zarur normativ-huquqiy asoslari yaratilgan.

Xususan, ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning amaliy mexanizmlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom² asosida tartibga solinadi.

Mazkur hujjat bilan ta'lim tashkilotlarini kompleks (institutSIONAL) va maxsus (dasturiy) davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi, tashqi baholash bosqichlari, ekspert komissiyalari faoliyati hamda akkreditatsiya qarorlarini qabul qilish mexanizmlari belgilangan.

Shu bilan birga, ekspertlarni saralash, ekspertlar reyestrini yuritish, ekspert komissiyalarini shakllantirish, ekspertlar faoliyatini baholash hamda ularning professional va etik talablarini belgilash Milliy agentlik direktorining 2026-yil 5-fevraldagi 7-IB-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Ekspert komissiyalari va ekspertlar reyestrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizom³ (keying o'rinlarda – Nizom) bilan belgilangan.



VM-498



7-IB



PF-76

² <https://lex.uz/docs/7671324>

³ <https://nqaae.uz/uploads/pages/NIZOM.pdf>

Ekspertlarni tanlashning kompetensiyaga asoslangan tizimida quyidagi standartlar bo'yicha bilimlari baholanadi.

01 kasbiy malakasi	04 strategik boshqaruv ko'nikmalari
02 xalqaro standartlarni bilish darajasi	05 tahlil qilish salohiyati
03 xorijiy tillarni bilish darajasi	06 xalqaro standartlarni bilish darajasi

Ekspertlar faoliyatining asosiy tamoyillari

- Xolislik
- Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish
- Etik me'yorlarga rioya qilish
- Maxfiylik
- Shaffoflik

Ekspertlar faoliyatini monitoring qilish, ularning natijadorligini baholash hamda ekspertlar toifalarini shakllantirish bo'yicha mexanizmlar ham normativ jihatdan mustahkamlangan.

EKSPERTLARNI

SARALASH VA REYESTRGA KIRITISH MEXANIZMLARI

Davlat akkreditatsiyasi jarayonlarining sifati va ishonchliligi ko'p jihatdan akkreditatsiya jarayonlariga jalb etiladigan ekspertlarning professional salohiyatiga bog'liq hisoblanadi. Shu sababli Milliy agentlik tomonidan ekspertlarni saralash va ekspertlar reyestriga kiritishning shaffof, ko'p bosqichli hamda kompetensiyaga asoslangan mexanizmlari joriy etilgan. Ekspertlarni jalb qilish maqsadida Milliy agentlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali muntazam ravishda ochiq e'lonlar berib boriladi. Nomzodlar veb-sayt orqali ariza topshiradi hamda o'zining malaka va professional faoliyatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadi. Ekspertlikka nomzodlarni saralash jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich

Nomzodlar sun'iy intellekt texnologiyalari asosidagi avtomatlashtirilgan suhbat tizimi orqali baholanadi. Ushbu bosqichda nomzodlarning tahliliy fikrlashi, muloqot ko'nikmalari, kasbiy kompetensiyasi hamda xorijiy tillarni bilish darajasi aniqlanadi



Ikkinchi bosqich

Nomzodlar Milliy agentlikning tegishli mutaxassisleri va ekspertlarni saralash bo'yicha ishchi guruh tomonidan onlayn yoki oflayn suhbatdan o'tkaziladi. Bunda nomzodlarning ta'lim sifatini ta'minlash tizimi, akkreditatsiya standartlari, strategik boshqaruv va ta'lim jarayonlarini tashkil etish bo'yicha bilimlari baholanadi



Uchinchi bosqich

Muvaffaqiyatli nomzodlar Milliy agentlik tomonidan tashkil etiladigan qisqa muddatli o'quv va trening dasturlarida ishtirok etadi. Trening yakunlari bo'yicha nomzodlarga ekspertlik sertifikati beriladi hamda ular ekspertlar reyestriga kiritiladi

Shuningdek, ekspertlarga nisbatan manfaatlar to'qnashuvining mavjud emasligi, etik me'yorlarga rioya qilishi, mustaqil va xolis faoliyat yuritishi bo'yicha qat'iy talablar belgilangan. Ekspertlar tomonidan maxfiylik tamoyillariga rioya qilinishi davlat akkreditatsiyasi jarayonlarining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Ekspertlar reyestri Milliy agentlikning yagona elektron platformasi orqali yuritiladi hamda ekspertlarning faoliyati, ishtirok etgan akkreditatsiya jarayonlari, baholash natijalari va toifalari bo'yicha ma'lumotlar muntazam ravishda monitoring qilib boriladi.

Mazkur tizim davlat akkreditatsiyasi jarayonlariga yuqori malakali va professional ekspertlarni jalb qilish, tashqi baholash sifatini oshirish hamda ta'lim sifatini ta'minlash tizimining institutsional ishonchliligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

EKSPERTLAR FAOLIYATINI BAHOLASH VA RAG‘BATLANTIRISH TIZIMI

Davlat akkreditatsiyasi jarayonlarining samaradorligi nafaqat ekspertlarni sifati saralash, balki ularning faoliyatini muntazam baholab borish, professional rivojlantirish va rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish bilan ham bevosita bog‘liq hisoblanadi.

Shu maqsadda ekspertlar faoliyatini monitoring qilish, baholash va toifalashning tizimli mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan.

Ekspertlar faoliyati har bir akkreditatsiya jarayoni yakunlangach ekspert komissiyasi raisi, xolis ekspert va Milliy agentlikning mas‘ul xodimlari tomonidan belgilangan mezonlar asosida baholanadi.

Bunda ekspertlarning tashqi baholash jarayonlaridagi professional ishtiroki, akkreditatsiya mezonlari va indikatorlarini qo‘llash sifati, tahliliy va metodologik yondashuvi, xulosalarning asoslanganligi va xolisligi, etik me‘yorlarga rioya qilishi, hujjatlar bilan ishlash sifati, tashkiliy intizomi va muloqot ko‘nikmalari kabi jihatlari kompleks ravishda baholanadi.

Ekspert komissiyasining baholash natijalari obyektivligi va ishonchligini ta‘minlash maqsadida yuqori malakali mutaxassislar xolis ekspertlikka olinadi.

Xolis ekspertlar ekspert komissiyasi xulosalarining metodologik jihatdan to‘g‘ri shakllantirilgani, baholash mezonlari va indikatorlarining to‘g‘ri qo‘llanilgani, keltirilgan dalillarning yetariligi hamda yakuniy xulosalarning asoslanganligini mustaqil ravishda tahlil qiladi.

Mazkur mexanizm akkreditatsiya natijalarining sifatini oshirish, baholash jarayonlarida yagona yondashuvni ta‘minlash hamda ekspertiza faoliyatining shaffofligi va obyektivligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xolis ekspertlarning mustaqilligi va obyektivligini ta‘minlash maqsadida ularning shaxsi hamda ekspertlik faoliyatiga oid ma‘lumotlardan faqat xizmat doirasida foydalaniladi hamda uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi.

Baholash natijalari asosida ekspertlarga tegishli malaka toifalari beriladi hamda ularning ekspertlar reyestridagi maqomi shakllantirib boriladi.

1- TOIFA

bosh ekspert/ lead ekspert

2- TOIFA

yetakchi ekspert/ senior ekspert

3- TOIFA

kichik ekspert/ junior ekspert



Maxsus (dasturiy) davlat akkreditatsiyasi doirasida har bir ta'lim dasturi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravaridan boshlanadigan (2,4 mln soʻmdan yoki 190 AQSh dollaridan);



Kompleks (institutsional) davlat akkreditatsiyasi doirasida esa bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan boshlanadigan (8,2 mln soʻmdan yoki 650 AQSh dollaridan) miqdorda to'lov amalga oshiriladi.



Davlat akkreditatsiyasi jarayonlariga yuqori malakali mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilish maqsadida ushbu miqdor bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravarigacha (82 mln soʻmgacha yoki 6,5 ming AQSh dollarigacha) oshirilishi mumkin

Mazkur yondashuv davlat akkreditatsiyasi jarayonlariga dunyoning yetakchi universitetlari, nufuzli xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari hamda ta'lim sifatini tashqi ta'minlash sohasida katta tajribaga ega yuqori malakali ekspertlarni jalb qilish imkonini bermoqda.

Bundan tashqari, mahalliy ekspertlarning ekspertlik faoliyati my.mehnat.uz platformasi orqali rasmiy hisobga olinadi hamda ularning mazkur faoliyati umumiy mehnat stajiga kiritiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-apreldagi 1030-son qarori bilan tasdiqlangan Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida nizomga⁴ muvofiq, ekspertlik faoliyatida ishtirok etgan xodimlarga asosiy lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha ustama belgilash imkoniyati mavjud.

Ekspertlar faoliyatini baholash va rag'batlantirishning mazkur tizimi davlat akkreditatsiyasi jarayonlariga malakali mutaxassislarni keng jalb qilish, ekspertlar korpusining professional salohiyatini oshirish va ta'lim sifatini tashqi baholash tizimining institutsional barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.


⁴ <https://lex.uz/docs/7671324>

EKSPERTLAR KORPUSINING

JORIY HOLATI TAHLILI


Bugungi kunda Milliy agentlik tomonidan davlat akkreditatsiyasi jarayonlariga jalb etilayotgan ekspertlar korpusi bosqichma-bosqich shakllantirilib, uning professional va institutsional salohiyatini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda ekspertlar reyestriga jami **511 nafar** ekspert kiritilgan bo'lib, shundan **361 nafari** (70 foiz) mahalliy ekspertlar va **150 nafari** (30 foiz) xorijiy ekspertlar hissasiga to'g'ri keladi.



Ekspertlar korpusi ta'lim tizimining turli bo'g'inlari va ilmiy tashkilotlar vakillaridan shakllantirilgan.


Ekspertlar tashkilotlar kesimida



Mazkur ko'rsatkichlar ekspertlar korpusini shakllantirishda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari, ilmiy hamjamiyat va amaliyotchi mutaxassislarining salohiyatidan keng foydalanilayotganini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, ekspertlarning asosiy qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda. Xususan, mahalliy ekspertlarning 198 nafari Toshkent shahri, 27 nafari Samarqand viloyati, 26 nafari Toshkent viloyati, 23 nafari Buxoro viloyati, 16 nafari Namangan viloyati va 15 nafari Jizzax viloyati hissasiga to'g'ri keladi.

Mahalliy ekspertlarning hududlar bo'yicha taqsimoti




Ba'zi bir nufuzli oliy ta'lim tashkilotlari kesimida ekspertlarning taqsimoti



Ekspertlar korpusi tarkibida eng katta ulush san'at va gumanitar fanlar (15,6 foiz) hamda biznes, boshqaruv va huquq (15,4 foiz) bilim sohalari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Mazkur holat ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlari soni va akkreditatsiya jarayonlaridagi talabning nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi.

Ekspertlar bilim sohasi kesimida



Mazkur holat ekspertlar korpusini shakllantirishda ilmiy-tadqiqot faoliyati rivojlangan, xalqaro akademik hamkorlik tajribasiga ega hamda ichki sifatni ta'minlash tizimlari shakllangan oliy ta'lim tashkilotlari salohiyatidan keng foydalanilayotganligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, davlat akkreditatsiyasi jarayonlariga amaliyotchi mutaxassislar, ta'lim boshqaruvi vakillari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari xodimlari hamda turli sohalardagi professional ekspertlarni keng jalb qilish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Umuman olganda, shakllantirilgan ekspertlar korpusi davlat akkreditatsiyasi jarayonlarini professional, xolis va xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etish uchun zarur institutsional salohiyatni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qilmoqda.

6-BOB

XORIJIY EKSPERTLARNI JALB ETISH VA XALQARO INTEGRATSIYA


Xorijiy ekspertlar davlatlar kesimida

47

davlatdan

150

nafar xorijiy ekspert




Davlat akkreditatsiyasi jarayonlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish hamda ta'lim sifatini tashqi baholash tizimining xalqaro maydondagi ishonchligini oshirish maqsadida Milliy agentlik tomonidan xorijiy ekspertlarni keng jalb qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Joriy yil may oyi holatiga ko'ra ekspertlar reyestriga AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Italiya kabi jami 47 ta davlatdan 150 nafar xorijiy ekspert jalb etilgan.

Xorijiy ekspertlarning 58 nafari (39 foizi) Times Higher Education xalqaro reytingida Top-1000 talikka kiruvchi oliygo'har professor-o'qituvchilari va mutaxassislarini tashkil etadi. Shundan 18 nafari (31 foizi) ushbu reytingning Top-100 taligidan o'rin olgan dunyoning yetakchi universitetlari vakillari hisoblanadi.

Xususan, xorijiy ekspertlar tarkibida: Oksford universiteti, Stenford universiteti, Pensilvaniya universiteti, Kolumbiya universiteti, Myunxen texnika universiteti, London Qirollik kolleji, Gonkong fan va texnologiya universiteti, Glazgo universiteti kabi dunyoning yetakchi oliygo'harlari professor-o'qituvchilari va mutaxassislari mavjud (to'liq holat 2-ilovada)

Shuningdek, xorijiy ekspertlarning 57 nafari nufuzli akkreditatsiya va ta'lim sifatini ta'minlash tashkilotlarida ekspertlik tajribasiga ega mutaxassislarni tashkil etadi.



Xorijiy ekspertlarni jalb qilish davlat akkreditatsiyasi jarayonlariga ilg'or xalqaro tajribalarni integratsiya qilish, baholash mexanizmlarining xalqaro standartlarga uyg'unligini ta'minlash hamda milliy akkreditatsiya tizimining xalqaro maydondagi ishonchligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, xorijiy ekspertlarning akkreditatsiya jarayonlaridagi ishtiroki mahalliy ekspertlar salohiyatini oshirish, ilg'or metodologik yondashuvlarni joriy etish hamda ta'lim sifatini tashqi baholash bo'yicha institutsional tajriba almashinuvini rivojlantirish uchun muhim platforma vazifasini bajarilmoqda.

Umuman olganda, xorijiy ekspertlarni davlat akkreditatsiyasi jarayonlariga keng jalb qilish amaliyoti O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini tashqi ta'minlash tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish hamda milliy ta'lim tizimining global ta'lim makonidagi integratsiyasini kuchaytirishning muhim omillaridan biri

MAVJUD MUAMMOLAR VA TIZIMNI YANADA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

BIRINCHIDAN

- » O‘zbekistonda davlat akkreditatsiyasi va ta’lim sifatini tashqi ta’minlash tizimi nisbatan yangi yo‘nalish hisoblanganligi sababli, ta’lim sifatini tashqi baholash, akkreditatsiya metodologiyasi hamda xalqaro sifat standartlari bo‘yicha amaliy tajribaga ega mahalliy ekspertlar soni hozirgi bosqichda cheklangan.
- » Shu munosabat bilan Milliy agentlik tomonidan davlat akkreditatsiyasi jarayonlariga xorijiy ekspertlarni keng jalb qilishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.
- » Bu yondashuv xalqaro tajriba va ilg‘or metodologik yondashuvlarni milliy akkreditatsiya tizimiga integratsiya qilish, mahalliy ekspertlar salohiyatini oshirish hamda tashqi baholash tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

IKKINCHIDAN

- » Mahalliy ekspertlar korpusini bosqichma-bosqich shakllantirish maqsadida tajriba almashinuvi va professional mentorlik mexanizmlari joriy etilgan.
- » Amaldagi tizimga muvofiq III toifadagi kichik ekspertlar davlat akkreditatsiyasi jarayonlarida I toifadagi bosh ekspertlar tarkibiga birlashtiriladi.
- » Mazkur yondashuv kichik ekspertlarning akkreditatsiya jarayonlaridagi amaliy tajribasini oshirish, xalqaro ekspertiza metodologiyalarini o‘zlashtirish hamda kelgusida mustaqil ekspertlar korpusini shakllantirish uchun muhim institutsional mexanizm hisoblanadi.

UCHINCHIDAN

- » Milliy agentlik tomonidan ekspertlar salohiyatini oshirish maqsadida xalqaro tashkilotlar va xorijiy hamkorlar bilan hamkorlikda muntazam ravishda seminar, trening va “workshop”lar tashkil etib kelinmoqda.
- » Xususan, ta’lim sifatini tashqi ta’minlash, akkreditatsiya metodologiyasi, evidence-based evaluation hamda xalqaro standartlar bo‘yicha qator seminar-treninglar o‘tkazilgan.

TO‘RTINCHIDAN

- » 2026-yilda ekspertlar korpusining xalqaro kompetensiyalarini yanada oshirish maqsadida Milliy agentlik tomonidan 30 nafar ekspertni xorijiy malaka oshirish dasturlariga yuborish rejalashtirilgan.
- » Mazkur dasturlar doirasida ekspertlarni AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Malayziya, Turkiya kabi davlatlardagi hamkor tashkilotlar va akkreditatsiya markazlarida maxsus o‘quv kurslari va amaliy dasturlarda ishtirok etishi nazarda tutilmoqda.

Tizimni rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ishlarni davom ettirish kerak bo‘ladi

- » yangi ekspertlarni tayyorlash;
- » xalqaro ekspertlar ulushini bosqichma-bosqich oshirish;
- » ekspertlarni sertifikatlash va qayta sertifikatlash tizimini takomillashtirish;
- » ekspertlar uchun doimiy professional rivojlanish (Continuous Professional Development - CPD) mexanizmlarini joriy etish;
- » xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari bilan qo‘shma trening va ekspert almashinuvi dasturlarini ko‘paytirish;
- » ekspertlar faoliyatini monitoring qilishning raqamlashtirilgan tahliliy tizimlarini takomillashtirish;
- » xolis ekspertlik amaliyotini rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini tashqi ta'minlash tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish doirasida davlat akkreditatsiyasi jarayonlariga jalb etiladigan professional ekspertlar korpusini shakllantirish bo'yicha muhim institutsional asoslar yaratildi.

Milliy agentlik tomonidan ekspertlarni saralash, tayyorlash, sertifikatlash, baholash va monitoring qilishning shaffof, raqamlashtirilgan hamda kompetensiyaga asoslangan tizimi joriy etildi.

Mazkur tizim davlat akkreditatsiyasi jarayonlarining xolisligi, ishonchliligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda shakllantirilgan ekspertlar korpusi tarkibida mahalliy va xorijiy ekspertlarning mavjudligi, dunyoning yetakchi universitetlari hamda xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari vakillarining akkreditatsiya jarayonlariga jalb qilinayotgani milliy akkreditatsiya tizimining xalqaro maydondagi integratsiyasini bosqichma-bosqich kuchaytirib bormoqda.

Shu bilan birga, ekspertlar salohiyatini oshirish, xorijiy tajribalarni milliy tizimga integratsiya qilish, seminar-treninglar va xalqaro malaka oshirish dasturlarini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli choralar kelgusida professional va mustaqil milliy ekspertlar maktabini shakllantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, Milliy agentlik tomonidan shakllantirilayotgan ekspertlar korpusi davlat akkreditatsiyasi jarayonlarini professional, mustaqil, shaffof va xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etishning muhim institutsional mexanizmi sifatida xizmat qilmoqda.

Ekspertlar faoliyatini muntazam baholab borish, ularning malaka darajalarini aniqlash hamda professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali akkreditatsiya jarayonlarining sifati va ishonchliligini yanada oshirish uchun zarur asoslar yaratilmoqda.

Mazkur tizimning izchil rivojlantirilishi O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini ta'minlash tizimining barqarorligini mustahkamlash, milliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi va nufuzini oshirish hamda global ta'lim makoniga integratsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi

Mahalliy ekspertlarning oliy ta'lim tashkilotlari kesimidagi
RO'YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Ekspertlar soni
Oliy ta'lim tashkilotlari		
1.	O'zbekiston Milliy universiteti	18
2.	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	13
3.	Yangi O'zbekiston universiteti	11
4.	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	11
5.	Toshkent davlat yuridik universiteti	11
6.	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	10
7.	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	10
8.	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti	8
9.	Buxoro davlat universiteti	7
10.	O'zbekiston milliy pedagogika universiteti	7
11.	Samarqand davlat universiteti	6
12.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti	6
13.	Toshkent davlat transport universiteti	6
14.	Toshkent kimyo-texnologiya instituti	5
15.	"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti	5
16.	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti	5
17.	Buxoro davlat texnika universiteti	5
18.	Milliy rassomlik va dizayn instituti	5
19.	Toshkent davlat agrar universiteti	5
20.	Toshkent davlat texnika universiteti	4
21.	Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi	3
22.	Renessans ta'lim universiteti	3
23.	Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti	3
24.	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti	3
25.	Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti	3
26.	Toshkent kimyo xalqaro universiteti	3
27.	"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti	2
28.	Guliston davlat universiteti	2
29.	Jizzax davlat pedagogika universiteti	2

30.	Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi	2
31.	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi	2
32.	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali	2
33.	Termiz davlat universiteti	2
34.	Toshkent arxitektura qurilish universiteti	2
35.	Toshkent farmatsevtika institute	2
36.	Toshkent shahridagi Inha universiteti	2
37.	Toshkent shahridagi Vebster universiteti	2
38.	Alfraganus universiteti	1
39.	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	1
40.	Andijon tibbiyot instituti	1
41.	Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti	1
42.	Buxoro davlat tibbiyot instituti	1
43.	Fan va texnologiyalar universiteti	1
44.	Farg'ona davlat universiteti	1
45.	International Agriculture University	1
46.	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	1
47.	Jizzax politexnika instituti	1
48.	Manchester Metropolitan University	1
49.	Millat Umidi universiteti	1
50.	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali	1
51.	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali	1
52.	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti	1
53.	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti	1
54.	Jamoat xavfsizligi universiteti	1
55.	O'zbekiston davlat sport akademiyasi	1
56.	Qarshi davlat texnika universiteti	1
57.	Qarshi davlat universiteti	1
58.	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	1
59.	Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti	1
60.	Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti	1
61.	Samarqand davlat chet tillar instituti	1
62.	Samarqand davlat tibbiyot universiteti	1

63.	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti	1
64.	Toshkent davlat tibbiyot universiteti Chirchiq filiali	1
65.	Toshkent shahridagi Adju universiteti	1
66.	Toshkent shahridagi Puchon universiteti	1
67.	Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti	1
68.	Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali	1
69.	University of Business and Science	1
70.	University of Management and Future Technologies	1
71.	Urganch davlat universiteti	1
72.	O'zbek milliy musiqa san'ati instituti	1
Ilmiy-tadqiqot tashkilotlari		
1.	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti	2
2.	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi S.A.Azimov nomidagi Fizika-texnika instituti	2
3.	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti	1
4.	O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti	1
5.	Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti	1
6.	Xalqaro kurash instituti	1
Texnikumlar		
1.	2-son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	3
2.	Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	2
3.	Asaka tuman 2-son texnikumi	2
4.	Chilonzor tuman 3-son texnikumi	2
5.	G'uzor tuman 1-son texnikumi	2
6.	Ishtixon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	2
7.	Namangan shahar 1-son texnikumi	2
8.	Namangan shahar 2-son texnikumi	2
9.	Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	2
10.	Olmaliq shahar 3-son texnikumi	2
11.	Qarshi tuman 3-son texnikumi	2
12.	Qo'shrabot tuman 2-son texnikumi	2
13.	Qo'qon shahar 1-son texnikumi	2

14.	Toshkent tuman 1-son texnikumi	2
15.	Zomin tuman 1-son texnikumi	2
16.	2-son Namangan Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1
17.	Afshona Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1
18.	Andijon pedagogika texnikumi	1
19.	Andijon shahar 7-son texnikumi	1
20.	Angren Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1
21.	Angren shahar 2-son texnikumi	1
22.	Baxmal tuman 2-son texnikumi	1
23.	Bo'stonliq turizm va madaniy meros texnikumi	1
24.	Boysun tuman 2-son texnikumi	1
25.	Bulung'ur tuman 1-son texnikumi	1
26.	Buxoro shahar 2-son texnikumi	1
27.	Chust tuman 1-son texnikumi	1
28.	Dang'ara ko'p tarmoqli texnikumi	1
29.	Dang'ara tuman 2son texnikumi	1
30.	G'allaorol tuman 2-son texnikumi	1
31.	G'ijduvon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1
32.	G'ijduvon tuman 2-son texnikumi	1
33.	G'ijduvon tuman 1-son texnikumi	1
34.	Jizzax Ilg'or kasbiy mahorat texnikumi	1
35.	Jizzax shahar 1-son texnikumi	1
36.	Kattaqo'rg'on Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1
37.	Kogon tuman texnikumi	1
38.	Koson tuman 1-son texnikumi	1
39.	Kosonsoy Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1
40.	Kosonsoy tuman 1-son texnikumi	1
41.	Marg'ilon shahar 2son texnikumi	1
42.	Mirzacho'l tuman 2-son texnikumi	1
43.	Namangan Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi	1
44.	Navbahor tuman 2son texnikumi	1
45.	Navoiy Ilg'or kasbiy mahorat texnikumi	1
46.	Navoiy viloyati Zarafshon shahar 1-son texnikumi	1

47.	Olmaliq shahar 2-son texnikumi	1
48.	Oqoltin tuman 1-son texnikumi	1
49.	Pop Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1
50.	Pop tuman 2-son texnikumi	1
51.	Qo'qon Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1
52.	Qo'qon shahar 2-son texnikumi	1
53.	Romitan tuman 3-son texnikumi	1
54.	Samarqand shahar 2son texnikumi	1
55.	Samarqand shahar 3son texnikumi	1
56.	Samarqand shahar 6son texnikumi	1
57.	Sariosiyo Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1
58.	Sergeli Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1
59.	Sharof Rashidov tuman 2-son texnikumi	1
60.	Sharof Rashidov tuman 3-son texnikumi	1
61.	Shayxontohur tuman texnikumi	1
62.	Shirin energetika texnikumi	1
63.	Sirdaryo Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1
64.	Sirdaryo Ilg'or kasbiy mahorat texnikumi	1
65.	To'raqo'rg'on tuman 1-son texnikumi	1
66.	To'raqo'rg'on tuman 2-son texnikumi	1
67.	Toshkent iqtisodiyot va soliq texnikumi	1
68.	Toshkent transport texnikumi	1
69.	Toshkent turizm va madaniy meros texnikumi	1
70.	Toshkent turizm va mehmonxona menejmenti texnikumi	1
71.	Uchquduq tuman 2-son texnikumi	1
72.	Urganch shahar 2son texnikumi	1
73.	Urgut Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1
74.	Xiva Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	1
75.	Yangibozor tuman 1-son texnikumi	1
76.	Yangiqo'rg'on tuman 2-son texnikumi	1
77.	Yangiyo'l shahar 1-son texnikumi	1
Akademik litseylar		
1.	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali akademik litseyi	2
2.	IIV Buxoro akademik litseyi	2
3.	IIV Samarqand akademik litseyi	1

4.	IIV Sirdaryo akademik litseyi	1
5.	IIV Jizzax akademik litseyi	1
6.	IIV 1-son Toshkent akademik litseyi	1
7.	IIV Qoraqalpoq akademik litseyi	1
8.	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi	1
9.	Buxoro davlat tibbiyot instituti akademik litseyi	1
10.	International house akademik litseyi	1
11.	Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi	1
12.	Jizzax politexnika instituti akademik litseyi	1
13.	Samarqand davlat arxitekturaqurilish universiteti akademik litseyi	1
14.	O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti akademik litseyi	1
15.	Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi	1
16.	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti akademik litseyi	1
17.	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti akademik litseyi	1
Boshqa tashkilotlar		
1.	Hamshiralar akademiyasi	4
2.	Kasbiy ta'lim moddiy-texnik ta'minoti markazi	1
3.	Kasbiy ta'lim agentligi huzuridagi kasbiy ta'lim moddiytexnika ta'minoti markazi	1
4.	Adaptiv jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti	1
5.	Sirdaryo viloyati kasbiy ta'lim boshqarmasi	1

Dunyoning yetakchi universitetlardan jalb qilingan xorijiy ekspertlar
RO'YXATI

T/r	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	Joylashgan davlati	Global reytingidagi o'рни*	Ekspertlar soni
1.	University of Oxford	Buyuk Britaniya	1	2
2.	Massachusetts Institute of Technology (MIT)	AQSh	2	1
3.	Harvard University	AQSh	5	1
4.	Stanford University	AQSh	5	1
5.	University of Pennsylvania	AQSh	14	1
6.	Columbia University	AQSh	20	1
7.	Technical University of Munich	Germaniya	27	1
8.	King's College London	Buyuk Britaniya	38	1
9.	Hong Kong University of Science and Technology (HKUST)	Xitoy	58	1
10.	University of Bristol	Buyuk Britaniya	80	2
11.	University of Glasgow	Buyuk Britaniya	84	1
12.	Humboldt University of Berlin	Germaniya	89	2
13.	University of Copenhagen	Daniya	90	1
14.	University of Birmingham	Buyuk Britaniya	98	2
15.	University of Warwick	Buyuk Britaniya	122	1
16.	University of Liverpool	Buyuk Britaniya	143	1
17.	Newcastle University	Buyuk Britaniya	144	1
18.	University of York	Buyuk Britaniya	154	1
19.	Trinity College Dublin	Irlandiya	173	1
20.	Lancaster University	Buyuk Britaniya	184	2
21.	Goethe University Frankfurt	Germaniya	201-250	1
22.	Stockholm University	Shvetsiya	201-250	1
23.	University of Aberdeen	Buyuk Britaniya	201-250	1
24.	University of Essex	Buyuk Britaniya	301-350	1
25.	University of London	Buyuk Britaniya	301-350	1
26.	Sunway University	Malayziya	301-350	1
27.	Universiti Kebangsaan Malaysia	Malayziya	301-350	1
28.	University of Innsbruck	Avstriya	301-350	1
29.	University of Jyväskylä	Finlandiya	401-500	1

30.	Heriot-Watt University	Buyuk Britaniya	401-500	1
31.	Al Ain University	BAA	401-500	1
32.	Keele University	Buyuk Britaniya	501-600	1
33.	Liverpool John Moores University	Buyuk Britaniya	501-600	2
34.	Universiti Putra Malaysia	Malayziya	501-600	1
35.	University of Plymouth	Buyuk Britaniya	501-600	1
36.	University of Stirling	Buyuk Britaniya	501-600	1
37.	Charles Sturt University	Avstraliya	601-800	1
38.	De Montfort University	Buyuk Britaniya	601-800	1
39.	Manchester Metropolitan University	Buyuk Britaniya	601-800	1
40.	Nottingham Trent University	Buyuk Britaniya	601-800	1
41.	Polytechnic University of Catalonia	Ispaniya	601-800	1
42.	Sultan Idris Education University	Malayziya	601-800	1
43.	University of Neuchâtel	Shveysariya	601-800	1
44.	Yildiz Technical University	Turkiya	601-800	1
45.	Waseda University	Yaponiya	801-1000	1
46.	Cairo University	Misr	801-1000	1
47.	Kingston University	Buyuk Britaniya	801-1000	1
48.	Kazan Federal University	Rossiya	801-1000	1
49.	Solent University	Buyuk Britaniya	801-1000	1
50.	University of East London	Buyuk Britaniya	801-1000	1
51.	University of Westminster	Buyuk Britaniya	801-1000	1
52.	University of Nova Gorica	Sloveniya	801-1000	1

Xalqaro akkreditatsiya va ta'lim sifatini ta'minlash tashkilotlarida ish tajribasiga ega xorijiy ekspertlar
RO'YXATI

T/r	F.I.Sh.	Xalqaro akkreditatsiya va ta'lim sifatini ta'minlash tashkilot nomi
1.	Mazuki Mohd Yasim	Malaysian Qualifications Agency (MQA)
2.	Aysel Karimli	Education Quality Assurance Agency of Azerbaijan(TKTA) The Association for International Credential Evaluation Professionals (TAICEP)
3.	Carlos machado	Accreditation, Certification and Quality Assurance Institute (ACQUIN)
4.	Jasmina CasalsTerré	Agency for Management of University and Research Grants (AGAUR) Agency for Quality of the Basque University System (Unibasq) National Authority for Quality Assurance & Accreditation of Education (NAQAAE) Slovenian Quality Assurance Agency for Higher Education (NAKVIS)
5.	Liu Likun	Henan Songshan Shaolin Wushu College
6.	Mokshada Sharma	World Federation for Medical Education
7.	Doriana Matraku Dervishi	Quality Assurance Agency of Higher Education of Albania (ASCAL)
8.	Mark Davies	British Accreditation Council of the United Kingdom Accreditation Council of the Agency for Science and Higher Education Centre for Quality Assessment in Higher Education of Lithuania Education and Youth Development Bureau of Macao Hong Kong Council for Accreditation of Academic and Vocational Qualifications (HKCAAVQ) Kosovo Accreditation Agency (KAA) National Center for Academic Accreditation and Evaluation (NCAAA) of Saudi Arabia National Center for Educational Quality Enhancement of Georgia

		Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of United Kingdom Quality Assurance Agency in Higher Education of Albania Royal Society of Biology of the United Kingdom University Grants Committee of Hong Kong (UCG)
9.	Pat Clarke	Higher Education Academy (HEA) of the United Kingdom Nursing and Midwifery Council (NMC) of the United Kingdom
10.	Daniel Whistler	Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of United Kingdom
11.	Dmitrii Nersesian	Accreditation Agency of Curaçao (AAC)
12.	Pascal Stiefenhofer	Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of United Kingdom
13.	Rana Parween	Education and Training Evaluation Commission (ETEC) of Saudi Arabia National Center for Academic Accreditation and Evaluation (NCAAA) of Saudi Arabia Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of United Kingdom
14.	Bertel De Grootte	Accreditation Agency Curacao (AAC) Accreditation Organisation of the Netherlands and Flanders (NVAO) Centre for Quality Assessment in Higher Education (SKVC) of Lithuania Council for Higher Education (CHE) of South Africa Kosovo Accreditation Agency (KAA) National Center for Educational Quality Enhancement (NCEQE) of Georgia
15.	Oleksandr Menshykov	Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of United Kingdom
16.	Timothy Goodchild	Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of United Kingdom
17.	Vlasios Sarantinos	National Center for Academic Accreditation and Evaluation (NCAAA) of Saudi Arabia Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of United Kingdom
18.	Nicola Morrell-Scott	Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of United Kingdom
19.	Sean Mackay	Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of United Kingdom

20.	Jeremy Bradshaw	<p>Academic Quality Agency for New Zealand Universities</p> <p>Albanian Public Accreditation Agency for Higher Education</p> <p>Higher Education Commission of Pakistan</p> <p>Hong Kong Council for the Accreditation of Academic and Vocational Qualifications</p> <p>Hong Kong Quality Assurance Council University Grants Committee</p> <p>Knowledge & Human Development Authority of United Arab Emirates</p> <p>National Center for Academic Accreditation and Evaluation of Saudi Arabia</p> <p>Quality and Qualifications Ireland</p> <p>Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of the United Kingdom</p> <p>Quality Board for Icelandic Higher Education</p> <p>Royal Society of Biology of the United Kingdom</p>
21.	Joanna Poon	Higher Education Academy (AdvanceHE) of the United Kingdom
22.	Che Zalina Binti Zulkifli	Malaysia Qualifications Agency (MQA)
23.	Francis Kevin Kendall	<p>Agency for Quality Assurance in Higher Education (ASCAL) of Albania</p> <p>Centre for Quality Assessment in Higher Education (SKVC) of Lithuania</p> <p>National Centre for Educational Quality Enhancement (NCEQE) of Georgia</p> <p>The Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of United Kingdom</p>
24.	Alan Weale	Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of the United Kingdom
25.	John Byrom	Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of the United Kingdom
26.	Ainagul Rymkhanova	<p>Non-governmental organization “Independent Agency for Quality Assurance in Education” (IQAA) of Republic of Kazakhstan</p> <p>Non-profit institution “Independent Kazakhstan Center of Accreditation” of Republic of Kazakhstan</p>
27.	Marianna Koli	Higher Education Academy (AdvanceHE) of the United Kingdom
28.	Paul Taylor	Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of the United Kingdom

29.	Georgiy Korobeynikov	Accreditation Commission of Ministry of Science and Education of Ukraine Scientific Committee of United World Wrestling, International Association of Sport Kinetics, International Martial Arts and Combat Sports Scientific Society
30.	Rong Huang	Bureau of the Polish Accreditation Committee (BPKA) of Poland Centre for Quality Assessment in Higher Education (SKVC) of Lithuania Estonian Higher Education Quality Agency (EKKA) of Estonia Malta Further and Higher Education Authority (MFHEA) Quality Assurance Agency for Higher Education (GAA) of the United Kingdom The National Centre for Educational Quality Enhancement (NCEQE) of Georgia The Romanian Agency for Quality Assurance in Higher Education (ARACIS)
31.	Syed Aftab Mohyuddin	National Center for Academic Accreditation and Evaluation (NCAAA) of Saudi Arabia Quality Assurance Agency for Higher Education (GAA) of United Kingdom
32.	Lee Chin	Malaysian Qualifications Agency (MQA)
33.	Chrystalle Margallo	Quality Assurance Agency for Higher Education (GAA) of the United Kingdom
34.	Tornime Khoshtaria	Kosovo Accreditation Agency (KAA) Malta Further and Higher Education Authority (MFHEA) National Center for Educational Quality Enhancement (NCEQE) of Georgia National Committee for Qualifications and Academic Accreditation (NCQAA) of Qatar
35.	Aqim Emurli	World University Service (WUS) Austria
36.	Bastian Baumann	Abu Dhabi Department of Education and Knowledge (ADEK) European Quality Assurance Agency (EQAA) National Committee for Qualifications and Academic Accreditation (NCQAA) of Qatar Oman Authority for Quality Assurance of Education (OAAQA) Slovenian Quality Assurance Agency for Higher Education (NAKVIS)

		Study Quality Evaluation Center (SKVC) of Lithuania The Romanian Agency for Quality Assurance in Higher Education (ARACIS)
37.	Anthony John Liddicoat	Excellence in Research Australia Research Excellence Framework (UK)
38.	Ashish Seth	National Assessment and Accreditation Council (NAAC) of India
39.	Soongohn Kim	Accreditation Board for Engineering Education of Korea (ABEEK)
40.	Miltiadis D. Lytras	Saudi National Institute of Health (SNIH) of Saudi Arabia Agency for Science and Higher Education (ASHE/AZVO) of Croatia Education and Training Evaluation Commission (ETEC) of Saudi Arabia Foundation for International Business Administration Accreditation (FIBAA) Malta Further and Higher Education Authority (MFHEA) National Commission for Academic Accreditation and Assessment (NCAAA) of Saudi Arabia North Macedonia Higher Education External Evaluation System Romanian Agency for Quality Assurance in Higher Education (ARACIS) Saudi Commission for Health Specialties (SCFHS), Saudi Arabia
41.	Rasheed Hussain	Pakistan Engineering Council (PEC)
42.	Malgorzata Carran	Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of United Kingdom
43.	Milica Kavedzic	Agency for Quality Assurance of Higher Education (Montenegro) European Consortium for Accreditation in Higher Education (ECA) Malta Further and Higher Education Authority (MFHEA)
44.	Nitin Goje	National Assessment and Accreditation Council of India
45.	Olgun Cicek	Agency for Quality Assurance in Education of Azerbaijan (TKTA) Association of Quality Assurance Agencies of the Islamic World (IQA / AGAAIW) British Accreditation Council (BAC)

	<p>Central and Eastern European Network of Quality Assurance Agencies in HE (CEENQA)</p> <p>CHEA International Quality Group (CHEA-CIQG)</p> <p>Higher Education Accreditation & Evaluation Council of Northern Cyprus(YÖDAK)</p> <p>International Agency for Accreditation and Ranking(IAAR)</p> <p>International Network for Quality Assurance Agencies in Higher Education (INQAAHE)</p> <p>Malta Further and Higher Education Authority (MFHEA)</p> <p>National Agency for Higher Education Quality Assurance of Ukraine (NAQA)</p> <p>Turkish Higher Education Quality Council (THEQC)</p> <p>Agencia Andaluza del Conocimiento (DEVA-AAC)</p> <p>Agencia de Calidad y Prospectiva Universitaria de Aragón (ACPUA)</p> <p>Agency for Quality Assurance and Accreditation Austria (AQ)</p> <p>Committee for the Implementation and Monitoring of Quality Assurance</p> <p>European Association for Quality Assurance in Higher Education (ENQA)</p> <p>European Consortium of Accreditation (ECA)</p> <p>European Quality Assurance Agency (EQAA)</p> <p>European Quality Assurance Forum (EQAF) Programme Committee</p> <p>European Quality Assurance Register (EQAR)</p> <p>European University Association (EUA)</p> <p>Finnish Education Evaluation Council (FINEEC)</p> <p>Committee for the Implementation and Monitoring of Quality Assurance in Maltese Higher Education (CIMGAM)</p> <p>Kosovo Accreditation Agency (KAA)</p> <p>Malta Further and Higher Education Authority (MFHEA)</p> <p>National Agency for Higher Education Quality Assurance of Ukraine</p>
<p>46.</p>	<p>Anca Prisacariu</p>

		<p>National Center for Educational Quality Enhancement (NCEQE) of Georgia</p> <p>National Commission for Academic Accreditation and Assessment (NCAAAA) of Saudia Arabia</p> <p>Quality Assurance Authority Mauritius (QAA)</p> <p>Romanian Agency for Quality Assurance in Higher Education (ARACIS)</p> <p>Saudi Skills Standards (SSS)</p> <p>Turkish Higher Education Quality Council (THEQC)</p>
47.	Kevin Rogers	Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of United Kingdom
48.	Sophia Butt	Higher Education Academy (AdvanceHE) of UK
49.	Lucas Kavlie	<p>Accreditation Council for Business Schools and Programs (ACBSP)</p> <p>Accrediting Bureau of Health Education Schools (ABHES)</p> <p>American Bar Association (ABA)</p> <p>Commission on Collegiate Nursing Education (CCNE)</p> <p>Council for Higher Education Accreditation (CHEA)</p> <p>Distance Education Accrediting Commission (DEAC)</p> <p>Medical Assisting Education Review Board (MAERB)</p> <p>Northwest Commission on Colleges and Universities (NWCCU)</p> <p>The Commission on Accreditation for Health Informatics & Information Management Education (CAHIIM)</p>
50.	Karl Wah Keung Tsim	The NLN Commission for Nursing Education Accreditation (CNEA)
51.	Akmal Sabarudin	Hong Kong Accreditation Service of Hong Kong Government
52.	Tamta Tskhovrebadze	<p>Malaysian Qualifications Agency (MQA)</p> <p>Academic Information Centre (AIC/AIKA) of Latvia</p> <p>Foundation for International Business Administration Accreditation (FIBAA)</p> <p>Independent Kazakhstani Center of Accreditation (IKCA)</p>


		Malta Further and Higher Education Authority (MFHEA) National Center for Educational Quality Enhancement (NCEQE) of Georgia The National Accreditation Agency (AAC) of Curacao
53.	Annie Hughes	Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of United Kingdom
54.	Umarov Timur	Accreditation Board for Engineering and Technology, Incorporated (ABET) of USA
55.	Korobaynikova Lesya Grigorevna	Accreditation Commission of Ministry of Science and Education of Ukraine
56.	Ana Rutović	Agency for Development of Higher Education and Quality Assurance of Bosnia and Herzegovina Agency for Quality Assurance of Higher Education (Montenegro)
57.	Nazih Khaddaj Mallat	Accreditation Board for Engineering and Technology, Incorporated (ABET) of USA Council for the Accreditation of Educator Preparation (CAEP) of USA Quality Assurance Agency for Higher Education (QAA) of United Kingdom Commission for Academic Accreditation (CAA) of United Arab Emirates Abu Dhabi Department of Education and Knowledge (ADEK)



 +998 55 505 30 30

 info@nqaae.uz
www.nqaae.uz

   @nqaaeuz

 @nqaaeuzbot